

UMUMJAHON XATTOTLIK SAN'ATI

Ibrohimova Madinabonu Jahongir qizi.

*„Axborot Texnologiyalari va Menjement Universiteti”
va Arab tili fakulteti talabasi.*

Annotatsiya: *Bu maqolada sharq xalqi xattotlik san'ati, kitobat san'ati va xat turlari va xattotlik shu o'rinda muhim o'rin egallagan xattotlar haqida so'z yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *Kalomi sharif, xattotlik san'ati uslublari, kitobat san'ati, xattotlik maktablari, tarixiy qo'lyozmalar va yodgorliklar, XXI asr xattotlik san'ati rivojlanishi.*

Kirish

Qadimiy sharq xalqlari va hozrgi sharq mamlakatlari shu jumladan O'rta Osiyo xalqlari ham tarixiy madaniy iqtisodiy va yuksak taraqqiyotga erishgani bu kunda butun dunyo ilm-fan ahli e'tirof etishgani biz uchun ayni haqiqatdir.

Qadimgi uzoq sharqda ham hattotlik bo'yicha ilm mavjud bo'lgan va bunga misol qilib Quroni Karimni misol qila olamiz Sharqda va nafaqat musulmon mamlakatlarda ham bu kitob ulug' hisoblanadi. Qadimda esa bu kitobni yozish har qanday insonga topshirilmas edi. O'z zamonasini tajribali xattotlarga vazifa qilib topshirilardi. Demak bundan bilib olishimiz mumkinki xattotlik san'ati qadimdan mavjudligini va qay tarzda bizga yetib kelayotganini.

Xattotlik san'ati va uslublar:

Xattotlik (arab.-husnixat yozuvchi), kaligrafiya-yozuv(xat) San'ati, kitob ko'chirish hamda me'moriy inshootlar, badiiy buyumlarning kitoblarini yaratish kasbi hisoblanadi. Yozuvning paydo bo'lishi natijasida yuzaga keldi. Ayniqsa, arab yozuvining keng tarqalishi tufayli xattotlikning rivojlanishi jadallashdi. Sharqda, jumladan, O'rta Osiyoda kitob bosish vujudga kelguniga qadar qo'lyozma kitob tayyorlash, ularning nusxalarini ko'paytirish matn ko'chirish bilan xattotlar shug'ullangan. Xattotlar saroylarda, ayrim amaldorlar huzurida guruh bo'lib ishlagan. Jumladan, temuriy shahzoda Bo'ysung'ur Mirzo(1397-1433) Hirotda tashkil qilgan kutubxonada musavvir, naqqosh va boshqa ustalar bilan bir qatorda 40dan ortiq xattotlar qo'lyozma kitoblar tayyorlash, yaroqsiz holga kelganlarini ta'mirlash bilan mashg'ul bo'lgan. Xattotlik san'atiga bag'ishlangan ko'plab risolalar 10 xil asosiy xat uslublari(nasx, kufiy, muxakkak, nasta'lik, suls, tavqe, ta'liq, devoniy, riko, riki,) mavjudligi haqida darak beradi. O'rta Osiyoda arab yozuvlari tarqalguniga qadar turli yozuv usullari bo'lgan[mas, sug'diy, urxuneniye, (qadimgi turkiy xoqon yozuvlar) va boshqa]. Qadimgi yozuvlardan bo'lgan kufiy yozuvi ko'pgina me'moriy va boshqa yodgorlik obidalarining bezagida saqlanib qolgan. Jumladan, O'zbekiston musulmonlari diniy idorasida saqlanayotgan Usmon Qur'oni ham ana shu kufiy(qad. hijoz adabiy yozuvi) dako'chirilgan. Qur'on ko'chirishda nasx, buyruq va farmonlar yozishda tavqe, maktublar bitishda riqo ishlatilgan. Bulardan tashqari tumor, g'ubor, shajariy, tug'ro va boshqa yozuv usullari ham bo'lgan.

Kitobat san'ati:

Kitobat san'ati (arab,kataba-yozish,yozmoq so'zidan)-qo'lyozma kitoblarni yaratish va ziynatlash.Eng qadimgi kitoblardan „Avesto’’qo'lyozmalari;Sug'd tilida yaratilgan „Vessantaraka jataka’’asari (uning varaqlari turli mamlakatlari-Rossiya,Fransiya,Angilyada saqlanadi);sopol yuzasidagi bitiklar,charm o'ramlari,metal buyumlardagi yozuvlar, qog'oz varoq taxlamalari va boshqa o'rta asrlarda umummusulmon yoki arab tilidagi qo'lyozma an'analariga asoslangan kitobat san'ati to'liq shaklandi va yuksak taraqqiyot darajasiga erishdi.

Kitobat san'ati bilan bir qatorda binolarning kitobalari,qabrtoshlardagi bitiklar va buyumlarda xattolik keng qolangan.Shayboniylardan Muhammad Shayboniyxon va Ubaydullaxon xattotlik bilan shug'ullangan va nasx xatiga yuksak maxorat bilan yozgan.16-asr Movarounnaxr xattotlik maktabini yuzaga kelishida Mir Ali Hiraviynsh hayoti va ijodi alohida o'rin tutadi.Bosmaxona paydo bo'lguniga qadar kotib,xattotlar mehnati kitob tayyorlashda muhim o'rin tutgan .Bu borada Bo'ysing'ur Mirzo,Alisher Navoiy ,Muhammad Rahimxon II (Feruz)va boshqalarning faoliyatlari diqqatga sazavor.20-asrdayirik kutubxonalarda xattotlar qo'lyozma kitoblar nusxasini ko'paytirish bilan shug'ullanganlar.

Xattotlik maktablari:

O'zbek xalqi uzoq asrlik tarixida yaratib qoldirgan ma'daniy me'rosida xattotlik san'ati alohida o'rin egallaydi.Bu davrlarda yozuv va kitob ko'chirishga e'tiborning ortishi tufayli ajdodlarimiz tasarrufida bo'lgan o'lkada „Buxoro xattotlik maktabi’’ „Xorazm xattotlik maktabi “ „Farg'ona (Qo'qon)xattotlik maktabi “ „Samarqand xattotlik maktabi’’ „Toshkent xattotlik maktabi’’ kabi bir necha yirik san'at markazlari vujudga keldi.

Tarixiy qo'lyozmalar va yodgorliklar:

Qadimiy qo'lyozmalar muhim adabiy, tarixiy, ilmiy manbalar hisoblanadi va ular payayeografiyada o'rganiladi.Keng ma'noda qo'lda yozilgan yoki yozuv mashinkasida , kompyuterda ko'chirilgan matndir.Arab tilida kitobat qilingan qo'lyozmalar 40 ta. Ularning ichida 4 tasi Qur'oni Karimning qo'lyozma nusxalaridir.O'zbek va Ozarbayjon tillaridagi qo'lyozmalar miqdor jihatdan ushbu kalleksiyada 2-o'rinda turadi.Ularning soni 24tadir. Jumladan, Axmad Yassaviy hikmatlaring 2 ta qo'lyozma nusxasi ,Alisher Navoiy devonlarining 3ta, Fuzuliy devonining 2ta ,

Mashrab she'rlari to'plamining 1 ta qo'lyozma nusxasi mavjud.Ayni damda bular bizga ham tarix ham madaniy meros bo'lib kelmoqda.

Xulosa:

Xulosa qilib aytganda, biz bu mavzular bo'yicha ko'plab baxslar yurita olamiz va bizning maqsadimiz ham bitta ya'niy tarixsiz kelajak yo'qdir deganlaridek o'tmishini chuqur bilgan xalqning istiqboli kafolatlidir.Tarixni anglash orqali insonda hayotni, o'zligini anglash qobiliyati shaklanadi.Ayniqsa buyuk ajdodlarning vorislari bo'lgan, bashariyat taraqqiyotiga kotta hissa qo'shgan millatga daxldor inson qalbida o'tmishini o'rganishga ehtiyoj kuchayadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Xattotlik>
2. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Kitobat_san%CA%BCati
3. <https://azkurs.org/mavzu-xattotlik-maktablari-haqida-malumot.html>
4. <https://oliymahad.uz/36446>
5. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Qo%CA%BBlyozma>
6. <https://society.uz/uz/news/detail/news/575>

